

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari

Son 8 Jild 4

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 8 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирорза Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашурновна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;  
Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Бегамова Насиба Холмурзаевна</i>	
МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА АГРАР СОҲА ХОДИМЛАРИНИНГ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ РОЛИ (ЎЗБЕКИСТОН ЖАНУБИЙ ВИЛОЯТЛАРИ МИСОЛИДА) .....	11-19
<i>Насиратдинов Сапар Жеткербай-улы</i>	
ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ФОТОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ .....	20-25
<i>Нарманов Феруз Асфандиёрович</i>	
ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ ҲАЁТИ ВА ФАОЛИЯТИНИНГ ҮҚИТИЛИШИ .....	26-30
<i>Rustamov Ilxomidin</i>	
“O’ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI – XALQ STRATEGIYASI (YANGI O’ZBEKISTON TARIXI) .....	31-34
<i>Normo’mnov Aziz</i>	
О’ZBEKİSTONLIK SPORTCHILARINING PARAOLIMPIYAMUSOBAQALARIDAGI ISHTIROKI .....	35-39
<i>Turdiboyeva Gulmira</i>	
VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIGIGA QARSHI KURASH BO’YICHA TARG’IBOTLAR SAMARASI .....	40-44
<i>Xamidova Shoira Rasulovna</i>	
PARASPORT TURLARI VA ULARNING QONUNIYATLARI .....	45-51
<i>Ахмедов Жасурбек Зокиржонович</i>	
МАДАНИЯТШУНОСЛИК ВА НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА .....	52-54

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Raximov To’xtabek Jumaboyevich</i>	
KICHIK BIZNES KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI .....	55-60
<i>Allaberganov Xushnud Allamberganovich</i>	
TASHQI SAVDO SALOHIYATINING MINTAQА IQTISODIYOTIDA TUTGAN O’RNI .....	61-68
<i>Амбарцумян Анастас Алексеевич</i>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ КОРИДОРЫ: СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ВЫГОДА И ПОИСК РЕШЕНИЯ НЕПРОСТЫХ ЗАДАЧ .....	69-81
<i>Baqoeva Dilfuzा</i>	
SANOAT KORXONALARIDA SOTUV TIZIMINING OLIB BORILISHI, MOHIYATI VA YO’NALISHLARI .....	82-86
<i>Adilov Mirkomil Miralimovich</i>	
TIJORAT BANKLARI KREDIT QO’YILMALARINING MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	87-93

*Donayev Sheroli Burxonovich*

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RIVOJLANTIRISH ASCENT

STRATEGIYASINING AHAMIYATI ..... 94-101

*Kaxarov Jasur Abulkosimovich*

ГАСТРОНОМИЯ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТISODIJ

МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 102-109

*Rahmonov Shukhrat Shavkatovich*

ТУРИСТИК МАҲСУЛОТ ДИВЕРСИФИКАЦИЯСИННИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....

110-117

*Sherov Alisher Bakberganovich*

OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI ..... 118-129

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna*

МАHMUDXO'JA BEHBUDIY MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING IJTIMOIY-

AXLOQIY MUNOSABATLARDAGI KONSTRUKTIV MOHIYATI ..... 130-135

*Muhamedov Asror*

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR ..... 136-145

*Aripova Zulfiyaxon Salijanovna*

HOZIRGI ZAMONDA ETIKA VA ESTETIKANI O'QITISHNING AMALIYIJTIMOIY

AHAMIYATI ..... 146-151

*Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich*

INSONNING TABIATGA NOOSFERAVIY MUNOSABATINI YUKSALTIRISH

ZARURIYATI ..... 152-156

*Xolmatov Uchqunjon Xamidullayevich*

AXBORIY-PSIXOLOGIK VA MADANIY TAHDIDLAR SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK

VA HAMJIXATLIKNI TA'MINLASHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI ..... 157-162

*Шоназаров Жамшид Шухратович*

ЖАДИДЛАР ФОЯЛАРИ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ БИЛАН ҲАМОҲАНГ .... 163-168

*Xo'janova Tamara Jo'raevna*

YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARINI AXBOROT URUSHI DAVRIDA MAFKURAVIY

TAJOVUZLARDAN ASRASH OMILLARI ..... 169-174

*Quchqorov Javlon Suyundik o'g'li*

MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASIGA MADANIY HODISALAR

SIFATIDA QARASH ..... 175-179

*Muxtorova Tutixon*

GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA FALSAFIY YONDASHUVLARNING O'ZIGA

XOS JIHATLARI ..... 180-186

*Rahmonova Mavluda Abdusamadovna*

ABDURAUF FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR

QARASHLARI TAHLILI ..... 187-194

*Pirnazarov Nurnazar*

- TANA, RUX VA MA'NAVIYATNING INSON BORLIG'IDAGI AKS ETISHINING  
FALSAFIY TAHЛИLI ..... 195-201

*Ismailov Dilshod Baxriddinovich*

- DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING  
MA'NAVIY-AXLOQIY SEGMENTI: KOMPARATIV YONDASHUV ..... 202-209

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Yuldasheva Shaxnoza Azimboyevna*

- RAY BREDBERI VA ISAJON SULTON ASARLARIDA MA'RIFATPARVARLIK MOTIVLARI  
TALQINI ..... 210-216

*Bozorbekov Ahmadbek*

- O'ZBEK TERMINOLOGIYASIDA TEXNIK, ZAMONAVIY LOGISTIKA SOHASIDAGI  
TERMINLARNING YASHALISH MODELLARI VA PARADIGMATIKASI ..... 217-230

*Xamrayev Fozilbek Yo'lidoshevich*

- ZAMONAVIY O'ZLASHMALARNI MILLIYLASHTIRISHDA O'ZBEK TILINING TARIXIY ZAXIRA  
MANBALARIDAN FOYDALANISH ..... 231-236

*O'tebaeva Dilbar*

- TURKIY TILLARGA UMUMIY BO'LGAN EKOLOGIK ATAMALAR ..... 237-242

*Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna*

- EPIK KLISHELAR HAMDA ULARNING INGLIZ VA NEMIS TILLARIDAGI TALQINI  
("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) ..... 243-247

*Kadirova Zaynab Bakoyevna*

- INGLIZ TILIDAGI REKLAMANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI ..... 248-252

*Allaberganova Nilufar Matnazar qizi*

- QOFIYA ASOSLARIDAGI MATNLARNING LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLARI ..... 253-256

*Nabiyeva Rushana Jamol qizi*

- OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARI LEKSIK-SEMANTIK GURUHINING MA'NOVIY  
GURUHLARI VA ULARDA YANGI O'ZLASHMALARNING ISHTIROKI HAQIDA ..... 257-262

*To'rayeva Iroda Sheramatovna*

- FOLKLORIZMLAR TIZIMIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMLARNING O'RNI VA  
SPETSIFIKASI ..... 263-268

*Qodirova Munisa Erkinjon qizi*

- BADIY MATNDA QO'LLANILGAN SAN'ATGA OID TERMINLARNING LEKSIK TIPOLOGIYASI  
(INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) ..... 269-272

*G'aniyeva Nozanin G'ayratovna*

- MARKAZIY OSIYODA JADID AYOLLARINING PATRIARXAL TUZILMALAR VA  
MUSTAMLAKACHILIK ZULMIGA QARSHI CHIDAMLILIGI VA QARSHILIGI ..... 273-277

*Zaripova Dilfuza Baxtiyorovna*

- TURKIY ADABIYOTDA "IBROHIMI ADHAM" QISSALARI TAHЛИLI ..... 278-284

*Eshniyazova Maysara Beknazarovna*

- ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARIDAGI HADISLAR BAYONIDA G'OYAVIY-BADIY  
IFODA MUKAMMALLIGI ..... 285-292

*Raxmonova Dildora Mirzakarimovna*

- O'ZBEK JADID ADABIYOTIDA OVRUPO MADANIYATI TALQINI ..... 293-298

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

<i>Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna</i>	
MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI HUQUQIY TIZIMLARIDA KODEKSLASHTIRISH	
JARAYONINING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI .....	299-306
<i>Узакова Гўзал Шариповна</i>	
ШАҲАРЛАР ВА БОШҚА АҲОЛИ ПУНКТЛАРИДА АТРОФ МУҲИТНИ МУҲОФАЗА	
ҚИЛИШНИНГ ЭКОЛОГИК-ХУҚУҚИЙ ТАЛАБЛАРИ .....	307-325
<i>Пулатова Нодирахон Собиржоновна</i>	
ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ УСТРАНЕНИЯ СУДЕБНЫХ ОШИБОК В ОБЕСПЕЧЕНИИ	
ПРАВ ЧЕЛОВЕКА .....	326-332
<i>Nizamatdinov Kayrat Keunimjaevich</i>	
MOBIL ALOQA XIZMATI KO'RSATISHDA MILLIY ALOQA OPERATORLARINING FAOLIYATINI	
HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	333-341
<i>Абдурахманова Нодирахон</i>	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В	
ОНЛАЙН АРБИТРАЖАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ .....	342-345
<i>Bokiyev Jahongir Nurmatjon o'g'li</i>	
TA'LIM OLISH HUQUQINING GENEZISI HAMDA UNING YURIDIK TABIATI .....	346-356
<i>Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li</i>	
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINI TA'MINLASH MASALALARI .....	357-368
<i>Утапов Фурқат</i>	
ИНДИВИДУАЛЛАШТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ТОВАР БЕЛГИСИНИНГ ХУҚУҚИЙ	
МАҚОМИ .....	369-374
<i>Dilboboyev Nozimbek Shavkat o'g'li</i>	
XALQARO VA MILLIY DARAJADA INVESTITYA QONUNCHILIGINING RIVOJLANISH	
TENDENSIYASI .....	375-381
<i>Назарова Марҳабо</i>	
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА И РАЗВИТИЕ ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В	
УЗБЕКИСТАНЕ .....	382-386
<i>Абулхайров Рустамхон Ибодуллаевич</i>	
ПОРТЛАШ СОДИР БЎЛГАН ЖОЙНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎТКАЗИШ	
МАСАЛАЛАРИ .....	387-400
<i>Абдусамиева Дилрабо Абдувахоб кизи</i>	
ВОПРОСЫ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ БЫВШИХ ОСУЖДЕННЫХ В НЕКОТОРЫХ	
МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТАХ.....	401-406
<i>Abdikhakimov Islombok</i>	
LEGAL RELATIONS AND STAKEHOLDERS IN QUANTUM TECHNOLOGIES REGULATION: A	
COMPREHENSIVE ANALYSIS OF GOVERNANCE FRAMEWORKS .....	407-412

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

<i>Djabbarova Nilufar Baxtiyarovna</i>	
TALABA-QIZLARDA LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFIYPEDAGOGIK	
YONDASHUVLARNING ROLI .....	413-417

<i>Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich</i>	
BO'LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI ADABIY ASARLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHDA DEBYUT MASHG'ULOTLARINING AHAMIYATI .....	418-423
<i>Kurbanova Shukurjon Yeldashbayevna</i>	
HOFIZ XORAZMIY DIDAKTIK QARASHLARINI O'RGANISHNING HOZIRGI HOLATI .....	424-429
<i>Ismoilova Shodiyaxon Xusanboy qizi</i>	
NEMIS TILIDAN KEYIN INGLIZ TILI O'RGANISH JARAYONIDA FONETIK INTERFERENSIYANI YUZAGA KELTIRUVCHI OMILLAR .....	430-435
<i>Salimov Ma'ruf Eshdovlat o'g'li</i>	
O'QUVCHILARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	436-439
<i>Палванова Умида Бахрамовна, Тургунов Собитхон Таушулатович, Якубова Азада Ботировна</i>	
ОРГАНИЗАЦИЯ И УПРАВЛЕНИЕ ОБУЧЕНИЕМ СТУДЕНТОВ НАВЫКАМ ОКАЗАНИЯ ПЕРВОЙ ПОМОЩИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СИСТЕМНОГО ПОДХОДА .....	440-444
<i>Rasulova Fotima Farxotovna</i>	
O'QUVCHILARNI IJODIY FIKRLASHGA YO'NALTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY YO'NALISHLARINING ILMIY TAHLILI.....	445-450
<i>Saidxo'jayev Muhammadxo'ja Ma'rufxo'ja o'g'li</i>	
YOSHLARNI MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHDA IJTIMOIY - PEDAGOGIK OMILLAR VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	451-456
<i>Utepbergenov Aydos Janabayevich</i>	
SAHNA NUTQI O'QITISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	457-461
<i>Nozima Muqimovna Hamdamova</i>	
MAJBURIY FANLARDAN TALABLARNING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLARIDAN FOYDALANISH .....	462-467

**Received:** 30 July 2024

**Accepted:** 5 August 2024

**Published:** 15 August 2024

*Article / Original Paper*

## **ANALYSIS OF ABDURAUF FITRAT'S VIEWS ON THE SPIRITUAL AND MORAL DEVELOPMENT OF SOCIETY IN THE WORK "FAMILY"**

**Rahmonova Mavluda Abdusamadovna**

Researcher of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Abstract.** In this article, Fitrat's work "Family" brings out the circumstances that contribute to the spiritual and moral development of the society, that the family has been a source of life since ancient times, that the human society cannot be imagined without the family, and that is why the East and West Arab researchers, thinkers, philosophers and enlighteners approach this problem in a unique way, and the role of the family in the development of society is analyzed.

**Key words:** Fitrat, work "Family", spiritual and moral education, development of society, young generation, respect for man, science and the glory of science.

## **ABDURAUF FITRATNING "OILA" ASARIDA JAMIYAT MA'NAVIY-AXLOQIY RIVOJIGA DOIR QARASHLARI TAHLILI**

**Rahmonova Mavluda Abdusamadovna**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Fitratning "Oila" asarida jamiyatning ma'naviy-axloqiy rivojiga hissa qo'shadigan holatlar olib chiqilgan blib, oila qadim zamonalardan buyon hayot davomiyligini ta'minlab kelayotgan manba ekanligi, kishilik jamiyatini oilasiz tasavvur etib bo'lmasligi va shu sababli Sharq va G'arb tadqiqotchilari, mutafakkir faylasuflari va ma'rifatparvarlari bu muammoga o'ziga xos tarzda yondashishganlari yoritilgan va oilaning jamiyat rivojidagi o'rni tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Fitrat, "Oila" asari, ma'naviy-axloqiy tarbiya, jamiyat rivoji, yosh avlod, insonga hurmat, ilm va ilmning ulug'verligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I8Y2024N27>

**Kirish.** Dunyo ilm-fanida o'chmas iz qoldirgan buyuk ma'rifatparvarlarning ilmiy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy ta'limotlari, diniy-irfoniy qarashlari doirasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda ma'rifatparvarlarning ma'naviy-axloqiy qarashlari asosida ilm, fan va dinning ilmiy-amaliy muammolarini yangi falsafiy yondashuvlar asosida o'rganish zaruratini paydo qilmoqda. Shu jihatdan olganda, jadidlarning jamiyat islohoti haqidagi konseptual g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli modernizatsiyaning genetik asosi ekanligini tadqiq qilish zaruriyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zining boy ma'naviy merosi bilan Sharq ijtimoiy fikr taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ma'rifatparvar, O'rta Osiyo jadidchilik harakatining mashhur namoyandalaridan biri Abdurauf

Fitrat va uning ma'naviy-axloqiy g'oyalari falsafiy tafakkur taraqqiyotida noyob hodisadir. Fitrat qomusiy ilmga ega, o'z qalamini badiiy va ilmiy ijodning juda ko'p sohalarida sinab ko'rgan va muvaffaqiyat qozongan kamyob iste'dodlardan edi. U zabardast tilshunos, tarixchi, huquqshunos bo'libgina qolmasdan, o'rta asrlar qomusiy olimlari singari ham musiqa nazariyasi, ham amaliyoti bilan shug'ullangan. Ko'rinish turibdiki, Rossiya sharqshunoslari o'tgan asr birinchi choragidayoq Fitrat fenomenini, uning zukko olimligini tan olganlar. Fitratning nomi xorijiy Sharq mamlakatlarida ham tanilgan edi. Turkiyada ta'lif olib, Sharq xalqlari tarixi, adabiyoti sohasida yirik mutaxassis darajasiga ko'tarilgan Fitrat o'tgan asrning 20-yillar o'zbek madaniyati, falsafasi, adabiyoti, san'ati rivoji uchun juda boy va o'lmas meros qoldirdi. Fitrat asarlari bugungi kunda ham oilada va jamiyatda yoshlarni tarbiyalashida dasturamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Oila - jamiyat, davlatning in'ikosi bo'lib, komil inson uning tabiatini, dunyoqarashi va milliy axloqi shu maskanda shakllanadi hamda kamol topadi. Ma'naviy barkamol inson uchun oila va jamiyatdagi sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Sharqona qadriyatlarga, axloqqa asoslangan jamiyatlarda o'z shaxsiy farovonligidan ko'ra oila sha'nining baland tutilishi, qarindosh-urug' va yaqin odamlarga, qo'ni-qo'shnilarga g'amxo'rlik qilish - oliy darajadagi qadriyat bo'lib, oilani tashqi muhit bilan bog'lashga va mustahkamligini ta'minlashga harakat qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida "Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirilar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakati hamda xalqining boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" [1; 40-41-b.]deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da shunday yozadilar: "Davlat va jamiyat bolalar hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mamlakati hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik, Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

Yoshlarga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta'lif-tarbiya va umuman, ijobiy xislatlarni o'rgatuvchi maktab bu - oiladir. Xalqimizda "qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqol bor. Tarbiya - oiladan boshlanadi. Biz bunda sog'lom, yetuk, komillik sari intiladigan oilani nazarda tutyapmiz. Oila qancha sog'lom bo'lsa, jamiyat ham shunga mutanosib bo'ladi. Lekin tagiga zil ketgan, mo'rt oilalar oxiri ajralish bilan tugaydi, bolalar yetim, xonodonlar parokanda bo'ladi. Bu esa, jamiyat ravnaqiga albatta putur yetkazadi. Shu bois, yurtimizda oila institutini, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish, oilada zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishni huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa yo'llar bilan qo'llab-quvvatlash darajasini oshirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi".

Albatta, kishilik jamiyatining taraqqiyoti turli ijtimoiy omillarga bog'liq. Ana shu omillar orasida oila va uning muayyan jamiyatdagi o'rni muhim ahamiyatga ega. Oila tizimining xukuqiy asoslari, musulmonlarning oilaga munosabati masalalari Qur'onni Karimda o'zining mukammal ifodasini topganligiga qaramay, yurtimizda yashab o'tgan olimlar, jumladan, jadid-ma'rifatparvarlari ham oila masalani chetlab o'tishmadi.

Fitratning 1914 yilda yozilib, 1915 yilda nashr etilgan "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asari ma'rifatparvar-jadidlarining bu borada e'lon qilingan asarlarining ma'lum darajada mantiqiy yakuni sifatida yaratilgan. Shuning uchun ham bu kitobda Fitratning oila va jamiyatga oid falsafiy qarashlari to'laligicha o'z aksini topgan, deyishimiz mumkin. Shubhasiz, Fitratning jamiyatga va oilaviy munosabatlarga oid qarashlari zaminida Qur'onda shu masala bo'yicha olg'a surilgan fikr va g'oyalar yotadi. Shuning uchun ham bu asar o'z vaqtida ko'plab taraqqiyarvarlar uchun qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Sharq va G'arb olimlarining ko'plab ilmiy tadqiqotlari bilan tanishib chiqish jarayonida Fitrat oila to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlab, o'z davri uchun mukammal yo'riqnomani dunyoga keltirdi. Uning sermashaqqat izlanishlari samarasi bo'lgan "Oila" risolasi oilaning jamiyat va inson hayotidagi rolini oshirishga, oila a'zolarning axloviy va huquqiy me'yorlarini belgilashga qaratilgandir.

Asarning yaratilish tarixi haqida Fitrat shunday yozadi: "Yaqinda muhtaram do'stim va hamfikrim, hamisha buxoroliklar saodati fikrida yuruvchi Abdulvohid Afandi Munzim (Abdulvohid Burhonov-1877 yili Buxoroda tug'ilgan ma'rifatparvar, shoir va jurnalist, 1934 yili olamdan o'tgan) menga oila boshqarish bobida bir kitob yozishni ishorat qildi. Baski, do'stimning niyati xolis va maqsadi oliy ekan, men inkor qilolmay, shu risolani tuzdim. Mening niyatim bu risolani millatimiz tili, ya'ni turkiy chig'atoyida yozish bo'lsa ham, ammo muhtaram do'stimning istagini inobatga oldim" [2; 216-b.]. (ya'ni, Fitrat Munzim iltimosiga binoan, mazkur risolani fors tilida yozdim demoqchi - M.R.)

**Muhokama.** Fitratning talqinicha, oila jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy bo'g'ini, kichik bir yacheykasi bo'lib, aynan shu muqaddas makonda xalqimizning bugungi kuni va kelajagi bunyod etiladi. Insonning taqdiri, kelajakdagi yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizligi, baxtli yoki baxtsizligi, kasb tanlashi, kayfiyati, hatto, jamiyatning ma'naviy qiyofasi ham oilalarning qandayligiga bog'liqligi azalii haqiqat [3; 4-b.].

Fitrat o'z asarini jamiyatga ta'rif berishdan boshlaydi: Odamlarning madaniy toifa ekanliklari, ya'ni tabiat hukmi ila bir qabila yoki bir qavm suvratida jam bo'lib bir-birlariga yordam berib yashashlari ma'lum. Kimki ana shu tabiat qonunining doirasidan chiqsa, ya'ni jamiyatdan chetlashsa, shubhasiz, mahv va nobud bo'lgay.

Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" asarida oiladagi muhit, farzand tarbiyasi kabi masalalarni butun bir jamiyatning taqdiri bilan bog'lab bayon qiladi. Uning fikricha, oila asosini to'g'ri qurmasdan va yosh avlodni to'g'ri tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas va oxir-oqibatda millatning taqdiri undagi oilalar holatiga bog'liq. Bu g'oya Fitratning mazkur asarida quyidagicha o'z ifodasini topgan: "Dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lman birorta qavm yo'q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham (*demakkim, jamiyat ham* - M.R.) shuncha kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va

intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millat (*demakkim, jamiyat ham-* M.R.) ning saodati va hayoti shubha ostida qoladi" [2; 215-b.].

Ma'lumki, bir qavm (jamiyat)ning har bir oilasi saodatli va baxtli bo'lmalar, o'sha qavmnini baxtiyor va baxtli deyish xatodir. Hamda oila a'zosidan birortasi baxtli bo'lmasa, o'sha oilani baxtiyor deyish ham noto'g'ri bo'ladi. Modomiki, qavm (jamiyat) oilalardan va oila alohida odamlardan tarkib topgan ekan, «ozdan ko'pga» (*yakkalikdan umumiylilikka; oddiydan murakkabga - M.R.*) degandek, aytish mumkinki, har qavmning saodati shu qavm oilalarining baxtiyorligi va har bir oilaning saodati shu oila a'zolarining baxtiyorligi bilan bog'liq [4; 469-b.].

Xo'sh, oila nima o'zi? "Oila - nikohga asoslangan kichik ijtimoiy guruh bo'lib, uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langandir" [4; 469-b.]. "Oilada umumiylilik xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-onasi va bolalar va boshqa qarindoshlar istiqomat qilishadi. Oila jamiyatning asosi, davlat qudratining manbaidir" [5; 310-b.]. Oila uch jihatni: nikohni, oilaviy mulkka g'amxo'rlikni va bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi.

Fitrat mazkur asarida oilaga quyidagicha ta'rif beradi: "Oila er, xotin va farzandlardan iborat. Boshqacha qilib aytganda, oila bir shaxs boshchiligidagi bir uyda yashovchilardir. Shu ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, oila ham bir necha odamlardan iborat bo'lgan jamoa (ya'ni, jamiyat - M.R.) ekan. Ularning har biri insonga xos narsaga, ya'ni o'z manfaatlariga asir bo'ladi. Biri ikkinchisining huquqini tasarruf qilib bosib olishi mumkin. Ana shu tajovuzning oldini olish uchun oila a'zolari o'rtasida ham bir qonun lozim. O'tgan olimlar hakimlar shu masalada sa'y-harakat qilib qonunlar ishlab chiqarganlarkim, ularning umumiylilik hay'atini "manzil tadbiri" (ro'zg'or tebratish tadbiri) deb ataydilar" [6; 215-b.].

Oila va jamiyat intizomi - davlat intizomining sarchashmasi bo'lib, oilasida intizom tuyg'usi bilan shakllangan farzand davlat va jamiyat ishida ham shu tuyg'u sohibi sifatida xizmat qiladi, har bir ishni o'z joyi va o'z vaqtida tartib asosida bajaradi. Bunday tartib-intizom xalq va millatning sharafiga aylanib, nemis va yaponlarga xos intizomning jahon miqyosida e'tirof etilish sababi ham ana shunda.

Xalqimizda oila sha'ni, oila a'zolarining or-nomusi, qarindosh-urug'larga g'amxo'rlik qilish oliy qadriyat bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, oila muayyan bir tartib-intizom asosida quriladi. Oilada mavjud tartib-qoidalar jamiyat va davlat intizomining poydevori bo'lib hisoblanadi.

Fitratning fikricha, agar oilada tartib-intizom bo'lsa, uning a'zolari shu xislatlarini ijtimoiy hayotlarida qo'llaydilar. Bu esa, ularning o'z xizmat vazifalarini yuksak darajada bajarishlariga sabab bo'ladi. Oilaning ahloq, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, bag'rikenglik tamoyillari asosida qurilgan bo'lishi insonlar o'rtasidagi munosabat va muloqotlarda o'ta muhim va shaxsning fe'l-atvori, yurish-turishida alohida ahamiyat kasb etadi. Agar oila o'z farzandini Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalasa, bu his-tuyg'u unga butun hayoti davomida hamroh bo'ladi.

Fitratning fikricha, oila uch muhim omil: er, xotin va farzandlardan iborat. Ana shu uch omilning har biri nozik, o'ziga xos jihatlarga ega. Chunonchi, er va xotin uchun uylanish (turmushga chiqish) asosiy muammo bo'lishi bilan birga yagona hisoblangan muhim qirralarga ham ega. Alloma oila qurish borasida: "Uylanish bir erkak va bir ayolning ittifoqidir. Alalxusus, muhabbat va mehr bilan hayotda sherik bo'lish demakdir. Er-xotin mushkulotdan iborat bo'lgan hayot safarida birga bo'lib, jismoniylar va ruhiy osoyishtalikka sherik, insoniy vazifalarni

bajarishda dastyor, qayg'u va umidsizlik damlarida g'amxo'r, saodat va baxtiyorlik chog'ida bir-birlariga hamdam bo'lishlari lozim" [6; 220-b.] degan fikrni ilgari suradi.

**Natijalar.** Fitrat uylanish har bir inson uchun shart va zarurligi, unda ko'plab axloqiy, xususiy va umumiy foydalar borligi, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.): "Uylaninglar va o'z nufuslaringizni ziyoda qilinglarkim, qiyomat kuni men sizlarning ko'plingizing bilan faxrlanay", deganliklarini aytib, odamlarni oila qurishga da'vat etadi.

Fitrat ko'p xotinga uylanishlikni jamiyatda oila mustahkamligiga putur yetkazadigan eng katta illat deb biladi. Bir necha ayolga uylanishni alloma bevafolik, adovat, vayronalik, fasodu zulm va insofsizlikka olib keladigan illat deb biladi. Ko'pxotinlilikni shariat hukmiga ham, aql va vijdon hukmiga ham to'g'ri kelmaydigan illatlardan biri deb bilgan Fitrat bu holatning ham tibbiy, ham ma'naviy jihatdan yetkazadigan zararlari ko'pligini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, Fitrat bu risolada nikoh, mahr va to'y masalariga ham o'z nuqtai nazarini bildiradi. Nikoh-erkak va ayolning mehr va muhabbat bilan hayotda sheriklik qilishlarining bitimi bo'lib, to'y-shu bitimning ziyofat bilan nishonlanadigan xalq udumlaridandir [6; 221-b.]. Mahr-ota tarbiyasi soyasidan va ona shafqati quchog'idan uzoqlashib, ko'ngli mahzun bo'lgan kelinning mehr va ishtiyoqini o'ziga jalg etish uchun kuyov tomonidan beriladigan hadyadir. Fitrat Qur'oni Karim oyatlari bilan fikrini mustahkamlaydi: "Xotinlaringizga mahrlarini hadya kabi (ya'ni chin ko'ngildan, mamnun bo'lib) beringiz! Agar o'zлari sizlar uchun mahrdan biron narsani ixtiyoriy kechsalar, sizlar uni pok va muborak bilib yeyaveringlar" [6; 235-b.].

Fitrat to'ylarni o'tkazish masalasida ham fikrini bildiradi. To'ylarni o'tkazish jarayonida insonparvarlik, izzat-ikrom, mehribonlik, mehmonnavozlik kabi yaxshi fazilatlar ustivor bo'lishini, insonni ulug'lash va hurmatlashda to'ylarning ahamiyati katta ekanligini uqtirar ekan, insonlarni ortiqcha isrofgarchiliklardan saqlanishga da'vat etadi: "agarda to'y munosabati bilan bir qator dindosh va vatandosh yor-birodarlar bir joyda yig'ilib, xursandchilik qilib, samimiy suhbat qilsalar, albatta, bir millat a'zolari o'rtasida muhabbat va mehribonlik ziyoda bo'ladi. Ba'zilar orasidagi kek va kudurat shu bahonada yo'qoladi. Buning ustiga qancha miskin va muhtoj odamlar to'y ne'matlardan bahramand bo'ladilar" [6; 238-b.]. Uning fikricha, to'ylar aqlu himmatga muvofiq o'tsa, foyda keltiradi.

Fitrat to'ylardagi isrofgarchilik va dabdabalar haqida yozar ekan, o'z qarashlarini hadislardan misollar keltirib asoslaydi: "Nabiy alayhissalom deganlarki, "Ikki odam bir-biridan o'tish uchun to'y va ziyofat qilsalar, birortasinikiga bormanglar, ularning taomlaridan yemanglar" [6; 239-b.]; "Eng yomon odam boylarni chaqirib, bechoralarni mahrum qilib taom bergen kuyov bo'ladi" [6; 239-b.].

Fitratning bu fikri nafaqat o'sha davr, balki bugungi kunimizda ham dolzarb mazmun kasb etishini e'tibordan soqit qilmaslik lozim. Chunki, mablag'ni, noz-ne'matlarni isrof qilishlik - muqaddas dinimiz tomonidan man qilingan, qoralangan holat bo'lishidan tashqari, bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida va jahonda ochlik muammosi global muammolardan biri bo'lib turgan paytda kechirib bo'lmaydigan hol, hatto axloqsizlik bo'lib hisoblanadi.

Afsuski, to'ylarni dabdabali qilib o'tkazish bo'yicha "poyga qo'yish", "kimo'zar"ga ziyofat berish, o'tkinchi hoyu havaslarni deb to'ydan keyin qarzdor va abgor holatga tushib qolish holatlari bizning zamonamizda ham uchrab turadi. Axir institutni tamomlab, tayyor mutaxassis bo'lib qolganda, uylanish uchun tez va oson pul topish ilinjida chet davlatlarga ishlashga borib, u yerda yovuz odamlarning qo'liga yoki begona, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan, yoinki tuzalmas kasallikkarga chalingan yoshlar shunday orzu-havaslar qurboni emasmi?! Fitrat

g'oyalarining bunyodkorligi esa yoshlarni bunday xunuk oqibatlarga olib keladigan "orzu-havas"lardan qaytarishda namoyon bo'ladi. Fitratning fikricha, Xudo tomonidan berilgan boylikni inson oilasi farovonligi va millat taraqqiyot yo'lida sarf-harajat qilishi, ammo, isrofgarchilikka yo'l qo'ymasligi darkor. Lekin hayotda shunday boylar uchraydiki, ular hashamatli binolar qurish, qimmatbaho kiyimlar kiyish, dabdabali to'ylar o'tkazish, maishat bilan mashg'uldirlar.

Fitrat oilaning huquqiy asoslarini yoritib berishdan avval "Uylanish va uylanmaslik xususida", "Nechta xotinga uylanish mumkin?", "Uylanmoq zarur bo'lganda qanday xotinni tanlash lozim?" singari fasllarni o'quvchiga havola etar ekan, g'oyat muhim ijtimoiy jihatlarini bayon etishni lozim topadi. Gap shundaki, muayyan ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy omillar tufayli tariximizning turli davrlarida ayrim yigit-qizlar turmush qurmoy o'tishgan. Fitrat shu masala haqida iztirob bilan yozadi: Ya'ni erkak va ayolning qanday sabab bilan turmush qurmasligidan qat'i nazar, birining uylanmasligi, ikkinchisining erga chiqmasligi tabiat qonunlariga mutlaqo zid. Zero, har bir inson Ollohning xohish-irodasi bilan dunyoga kelar ekan, u o'z ichki va tashqi imkoniyatlari bilan hayotning davom etishiga hissa qo'shishi lozim. Undan qoladigan farzand shubhasiz hayotning uzviyigini ta'minlaydi. Agar u umrida ana shu qonunga amal qilmasa, hayot daraxtining kichik bir tomiriga bolta urgan bo'ladi. Farzand qoldirish esa, Fitrat nazarida, serhosil yerga urug' sepish va hosil olishdir. Bu hosildan esa faqat dehqon (ya'ni ota) ning o'zi emas, balki boshqalar, ya'ni jamiyat ham bahramand bo'ladi. Bundan tashqari, oilaning buzilishi va farzandlarning tirik yetim bo'lib qolishi holatlari Fitratni iztirobga soladi va oilani mustahkamlash yo'llarini ham tahlil qiladi.

Milliy urf-odatlarga ko'ra, ayniqsa, tahlil qilinayotgan kitob bitilgan paytda, nikoh va oila taqdiri ko'p jihatdan sovchilar qo'lida bo'lgan. Ular quda tomonning munosabatlari, ko'rgan izzat-hurmatlari yo nazar-e'tiborga olinmaganligi faktidan kelib chiqib, kelin, uning ota-onasi va uy-joyini ta'rif hamda tavsif qilishgan. Uylanish uchun tanlangan yo'l shundan iborat bo'lgan. Ammo bu yo'l hamisha ham to'g'ri va ravon bo'lman. Shuning uchun ham Fitrat oila o'zaro kelishuv va rozilik asosida qurilsa, uzoq va mazmunli hayot kechirishi uchun quyidagi omillarga e'tibor berishni tavsiya etadi:

1. Fitrat uylanishda to'rt narsaga: mol, nasab, husn va diyonatga e'tibor berish lozim ekanligini uqtiradi. Fitrat agar insonlar o'zaro teng imkoniyatlar asosida oila qursalar, uzoq va baxtliroq umr kechiradilar degan g'oyani ilgari suradi: "Uylanish orzusida bo'lgan er bilan xotinning mol (boylik)lari va nasablari taqriban bir xil bo'lishi lozim. Aks holda er bilan xotin bir-birlariga teng bo'lmay, biri boy va kalonzoda bo'lsa, ikkinchi tomonni faqirlik va zoti pastlikda ayblab, o'z hayotlarini mudom azobga qo'yadilar" [2; 230-b.]. deb ta'kidlaydi Fitrat.

2. Husn, go'zallik, chiroy kishi qalbini o'ziga moyil qilish xususiyatiga ega; agar qalbda ana shu moyillik paydo bo'lmasa, afsuski, er va xotin saodatlari umr kechirmaydi: "Jamol (husn) bu ko'rinish demakdir, ya'ni qarayotgan kishi nazariga chiroyli ko'riniib, uning qalbini o'ziga moyil qilish demakdir. Qalbda paydo bo'lgan bu moyillikni muhabbat deyish mumkin. Hayotda do'st, baxt va baxtsizlikda sherik, g'am-qayg'u vaqtida hamdam, xushnud damlarda bir-birlariga yor bo'lishni istagan erkak va ayol shaxsiy va ijtimoiy vazifalarini birgalikda bajarishlari kerak. Ularning o'rtalarida ana shu qalbiy moyillik va muhabbat bo'lmasa uylanish o'z-o'zidan zararga aylanadi" [2; 230-b.]. Bunday fikrlash Fitratning tom ma'noda ma'rifatparvar, insonparvar g'oyalar targ'ibotchisi ekanligi va axloq tamoyillari nuqtai nazaridan o'taadolatli inson ekanligidan dalolat beradi.

3. Er va xotin diyonatli bo'lishi lozim. Diyонат - Xudoni tanish, bilish va Haqdan qo'rqishdir. Husni axloqning asosi va mezoni ham Xudodan qo'rqish va Haqni tanishdadir, deydi alloma Fitrat: "Mazkur bo'lган to'rtинчи сифат shulkim, har bir erkak va ayol dindor bo'lishi lozim. Yuqorida zikr etilgan go'zallik (jamol) haqidagi so'zlarimiz zohiriyl (tashqi) jamoldir. Agarda u botiniy (ichki) jamol bilan, ya'ni yaxshi xulq bilan bog'liq bo'lmasa, bir tiyinga qimmat. Kimki o'z ixtiyori tizginini hayvoniy shahvat qo'liga bermagan ekan, doimo ichki jamolini tashqi go'zalligi bilan, ya'ni husni axloqini kora ko'zlar, kamон qoshlari bilan ziynatlaydi. Shunday qilib, husni axloqning asosi va mezoni Xudodan qo'rqish va Haqni bilishda, ya'ni dindorlikdadir. Dindorliq, ya'ni xushaxloq bo'lmoq har bobda, xususan, uylanish bobida nihoyatda zarurdir [2; 231-b.].

Abdurauf Fitratning oilaviy munosabatlar, inson huquq va erkinliklari to'g'risida qoldirgan ilmiy merosi nihoyatda boy va serqirradir. U - insonparvarlik tamoyillariga asoslangan, millati, dini, e'tiqodi, jinsi, ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklari har tomonlama himoya qilinadigan adolatli, ma'rifatli jamiyat barpo etish uchun nafaqat nazariy, shuningdek, amaliy tomonidan ham katta kuch-g'ayrat sarfladi, alohida fidoyilik ko'rsatdi.

Abdurauf Fitrat zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy yo'l bilan yechish yo'llarini asarida ko'rsatgan. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalg etish, saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, mutaxassisislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtni obod, farovon etishlariga ishongan.

Abdurauf Fitrat madaniy-ma'naviy faoliyatini tahlil qilib va uning asr boshidagi g'oyaviy qarashlaridan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinniki, Fitrat xalqni savodsizlik, mutelikdan qutqarishga bel bog'lab, shu yo'lда yoshlar asosiy kuch ekanligini tushungan, ularning ong-saviyasini oshirish uchun ularni avvalambor oilada tarbiyasini kuchaytirilishi kerakligiga ko'p sa'y-harakat qilgan. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi uning fikrlari bugungi O'zbekiston namoyon bo'lmoqda.

**Xulosa.** Bugungi globallashuv davrida ma'rifatparvar Fitratning "Bir insonning irodasi butun bir millatni isloh qilishga yetadi" degan so'zları dolzarbdır.

Fitrat taraqqiyotga eltadigan birdan-bir yo'l sifatida ta'lim- tarbiyani targ'ib qiladi. Mamlakatni rivojlantirish uchun, milliy o'zlikni saqlagan holda, diniy va dunyoviy bilimlardan uyg'un holda foydalanib, yoshlarni ilm-ma'rifatli qilish kerak degan g'oyani ilgari surgan.

Fitrat oila - jamiyat va davlatning qiyofasi bo'lib, barkamol avlodning tabiatini, dunyoqarashi va milliy axloqi shu maskanda shakllanadi hamda kamol topadi, deydi.

Shu bois hozirgi globallashuv davrida kommunikatsion makon va vositalar orqali kirib kelayotgan axboratlardan to'g'ri foydalanish, ularning salbiy oqibatlaridan oila va jamiyatlarini asrash barkamol yoshlar tarbiyasining barcha alomatlarini ifodalovchi ko'zgu, turmushning ma'naviy asosi, axloqiy tizimi bo'lib, butun dunyoda farovon hayot qurish va tinchlikning garovi hisoblanadi.

Hozirgi davrda oila, uni o'rganishning turli yo'nalishlarini takomillashtirish, bir so'z bilan aytganda, falsafiy tomonidan o'rganish, shu asosda oilaviy munosabatlarni, oiladagi

psixologik muhit, ta'lim-tarbiya va uning etnopsixologik xususiyatlarini tadqik etish muhim muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

Jadid allomalari, xususan, Fitratning oila haqidagi qarashlarini o'rganish hozirgi zamon oilasini yanada taraqqiy ettirishda o'ziga medologik asoslar berishi bilan ahamiyatlidir.

Turkiston jadidlarining oila haqidagi diniy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, sotsiologik, huquqiy, iqtisodiy, falsafiy, axloqiy, ma'rifiy qarashlarini tadqiq etish davr talabidir.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси. Т.: 2023. -Б. 40-41.
2. Абдурауф Фитрат. ТА. IV жилд. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. Т.: Маънавият, 2006. -Б. 312.
3. Алимова Д. Оила пойdevori ҳақида рисола (асарнинг иккинчи нашрига кириш сўзи). Фитрат. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. – Т: Маънавият, 2000. -Б. 144.
4. Ўзбекистон миллый энциклопедияси. 8 – том. Т.: Давлат илмий нашриёти, 2004 йил. -Б. 469.
5. Фалсафа қомусий луғат. Т.: Шарқ НМАК бош таҳририяти, 2004 йил. -Б. 310.
6. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Tanlangan asarlar. 4 jild. T.: Ma'naviyat, 2006 yil. -B.320.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**Nº 8 (4) – 2024**

### **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулити чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).